



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SAN‘AT, TIL VA MADANIYAT MASALALARINI ILMIY  
O‘RGANISHDA FAN VA INNOVASIYALAR UYG‘UNLIGI**

**MAVZUSIDAGI ILMIY AMALIY ANJUMAN**

Materiallar to‘plami

4-may

**Buxoro – 2023**

bog'liq yettita maqom bo'lgan. Bunda "Rost"maqomi – Odam alayhissalomdan, "Ushshoq" – Nuh alayhissalomdan, "Navo" – Dovud alayhissalomdan, "Hijoz" – Ayub alayhissalomdan, "Husayniy" – Yoqub alayhissalomdan va "Rahoviy" – Muhammad sallallohu alayhi vassalamdan meros qolganligi haqqidagi rivoyatlar bayon etiladi. Muallif bu axborotni yetkazishda Xo'ja Abdulqodir ibn Marog'iy, xo'ja Safiuddin ibn Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloir kabi juda obro'li ustozlar fikriga tayanganligini ham ma'lum qiladi.

Shuni aytish kerakki maqomlar musiqasiga oid "maqom" atamasidan avval "yo'l" ma'nosini anglatuvchi "roh", "tariqa", "ravish" kabi atamalar qo'llanib kelganligini Darvish Ali Changiy bayon etgan ma'lumotlarni quvvatlashga xizmat qilishi mumkin. Olloh taolloning yer yuzidagi elchilari bo'lgan payg'ambarlarning insonlarga chinakam baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatganlar. Ulardan qolgan ma'naviy ta'limot namunalari jamoa-qavmlar orasida alohida e'zozlanib, avloddan-avlodga go'zal ruhiy meros sifatida o'tib kelgan. Inson tinglovi va idroki uchun eng ma'qul va manzur bo'lgan mukammal pardalar ham dastlab shu meros negizida (yoki uni nazariy jihatdan o'rganish asnosida) hosil etilib, so'ngra shu (parda) "yo'llar" asosida turli kuylar rivojlantirilgan (yoki kuylarning yangi namunalari ijod etilgan) bo'lsa kerak.

#### **Adabiyotlar**

Karomatov F., Elsner Yu. Makam I makom, kn: Muzika narodov Azii I Afriki. Vip . M., 1984, s. 91

2. Sach Curt. The Rise of music in the anchient World and West. W. W. Norten E. Company INC. New York., Vinogradov V. S. Klassicheskie tradicii Iranskoy muziki. M., Sovetskiy kompozitor, 1981, s. 30-32; Gruber R. I. Vseobshaya istoriya muziki. I. M., Gosmuzizdat, 1960, s. 69, 114-117

3. Jmud L. Ya. Pifagor I yego shkola. L., Nauka, 1990, s. 91-100

4. Change Darvish Ali. Traktat o muzike. (perevod s pers.-tadj. D. Rashidovoy) Rukopis bib-ka NII Iskusstvoznaniya Inv. N879 s. 23-29.

## **5.44.MUSIQA MADANIYATI FANI O'QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA YO'NALTIRISH**

*Mustafoyev Baxtiyor Ibragimovich, Bux. DU  
"Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasida dotsenti*

**Tayanch so'zlar:** innovatsion ta'lim, musiqiy ehtiyoj, ijodiy yondashuv, musiqiy faoliyat, interfaol ta'lim, o'zaro hamkorlik, o'quv-biluv faoliyati, nazariy bilim, ko'nikma.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada musiqqa madaniyati fani o'qituvchilari kasbiy mahoratini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga yo'naltirishning ta'lim sifatini yanada oshirishdagi ahamiyati xususida mulohazalar yuritilgan.

Rivojlanib borayotgan bugungi jamiyatimizda musiqqa ta'limi sohasida ham juda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'quvchi anik va tabiiy fanlar bilan birga san'at, jumladan musiqqa madaniyatini o'zlashtirishga, o'zining iqtidorini namoyish qilish, qobiliyatlarini o'stirishga astoydil kirishadigan badiiy bilimlarga chanqoq, talabchan, ilg'or ma'naviy dunyoqarashga ega yoshlardir. Ularni o'qitish va tarbiyalashda ilg'or ilmiy va innovatsiya yutuqlarni amaliyotga joriy etishni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiritilganligi o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari zimmasidaga mas'uliyatni yanada oshiradi.

Endilikda musiqqa madaniyati fani o'qituvchisi eski qolipdagi an'anaviy darslar yoki

“musiqali topishmoq”lar bilan o‘quvchilarning ma’naviy ehtiyojini qondira olmaydi. Hozirgi davr musiqa madaniyati o‘qituvchisi oldiga juda mas’uliyatli vazifa yuklanmoqda.

O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, unga badiiy-ijodiy ruhda yondashib, har bir mashg‘ulotini qiziqarli va mazmunli tarzda tashkil etsa-gina ko‘zlagan maqsadiga erishadi. Buning uchun musiqa madaniyati mashg‘ulotini tashkil etishda birxillikdan kechib, har darsga yangi metod, vosita va usullarni topishga harakat qilishi, tinmay izlanishi, ijodiy yondashuvi hamda o‘z ustida doimiy ishlamo‘g‘i darkor.

Umumta’lim maktablarida dars beradigan musiqa madaniyati o‘qituvchilar uyidagilarga alohida e’tibor berishlari kerak:

birinchidan, o‘quv reja va dasturlarda ko‘rsatilgan mavzularni zamon talablari darajasida zaruriy yangiliklar bilan boyitib o‘quvchilar qalbi va ruhiyatiga singdirish;

ikkinchidan, o‘quvchilarni musiqiy-ijodiy izlanishga undaydigan musiqiy faoliyatlarda interfaol ta’lim usullari va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalana olish malakalariga ega bo‘lish;

uchinchidan, o‘quvchilarning hamkorlikda, guruhda, juftlikda va individual faol ishtirokini ta’minlaydigan, tashabbuskorlik, kreativlikka undaydigan, o‘quvchilarning musiqiy-badiiy hamda kommunikativ faoliyatini samarali tashkil etishga imkon beradigan ta’lim uslublarini to‘g‘ri tanlay bilish;

to‘rtinchidan, “Musiqa madaniyati”ni qanday innovatsion ta’lim usullaridan foydalanib yanada samarali o‘qitish va tarbiyalash mumkin?”, - degan savolga javob topishlari kerak.

Bugungi kunda bir qator mamlakatlarda o‘qituvchilarning musiqiy o‘quv va badiiy-ijodiy faolligini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini kafolatlovchi interfaol metodlarni qo‘llash borasida katta tajribalar to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi innovatsion ta’lim metodlari nomi bilan yuritilmoqda.

Zamonaviy musiqa ta’limi samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir. Zero, pedagogika fani izohli lug‘atida “Interfaol usullar o‘quvchilarning o‘zaro muloqot va o‘zaro ta’sirida dars jarayonini amalga oshiradi. Interaktiv ingliz so‘zidan olingan bo‘lib, “interact”ya’ni inter-o‘zaro, act-harakat, ta’sir, faollik ma’nolarini anglatishi ta’rif etilgan [4].

Interfaol ta’lim musiqa sabog‘i jarayonida o‘quvchilarning nazariy bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan badiiy-estetik sifatlarini o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanadi. Interfaol ta’limning quyidagi metodlari mavjud:

- muammoli ta’lim;
- loyihali ta’lim;
- o‘yin orqali kechuvchi ta’lim;
- kreativ ta’lim;
- evristik ta’lim;
- akt ta’limi [5].

Interfaollik - bu o‘zaro ikki kishining faolligi, ya’ni bunda o‘quv-biluv jarayoni o‘zaro muloqotlar asosida kechadi. Musiqa madaniyati ta’limi jarayonida keng ishlatiladiganlaridan biri – “Venn diagrammasi” bo‘lib, musiqiy-nazariy tushuncha ma’lumotlarni o‘quvchilar ongiga mustahkam singdirishga yordam beradi. Musiqiy faoliyatlar - tinglash, jamoaviy aytim, musiqa savodxonligi, bolalar cholg‘u asboblari jo‘r bo‘lish, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish va musiqa ijodkorligini ta’minlash o‘qituvchidan yuksak mahorat va musiqiy-badiiy saviyani talab

etadi.

Venn diagrammasi obyekt, tushuncha, g'oya, hodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida qo'llanib, o'xshashlik va farqli tomonlar ochiladi [2].

Venn diagrammasi-grafik ko'rinishda bo'lib, olingan natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetlarni (ko'rinish, fakt, tushuncha) taqqoslash, tahlil qilish va o'rganish jarayonida qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylananing kesishmasidan hosil bo'ladi. Venn diagrammasining maqsadi - grafik tasvir orqali musiqiy tushunchaning ikkita o'zaro kesishgan aylana tasvirini ifodalaydi. Mazkur metod turli musiqiy tushunchalarning umumiy va o'ziga xos farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash orqali fikr bildirish imkonini beradi.

Musiqqa ta'limida innovatsiyalar tatbiq etilganda:

1. O'quvchining musiqiy-badiiy faolligi oshadi, hamkorlik, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
2. Musiqqa ta'limidan o'quv, reja, dastur, darslik, qo'llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.
3. Musiqiy ta'lim mazmuni – asarlarini tinglash va tahlil etish, ularni mustaqil badiiy tahlil qilish, qo'shiq kuylash, musiqqa savodxonligini oshirib borish – o'quvchilarning doimiy mashg'ulotlariga aylanadi;
4. O'quvchi musiqqa asari haqida munosib badiiy baho bera olish, fikrini erkin ifoda etishga odatlanadi.
5. Eng muhimi - musiqqa ta'limi jarayonida badiiy-didaktik motivlar vujudga keladi. Ya'ni, o'quvchining musiqiy didi shakllantiriladi, musiqiy ehtiyoji, hoxish-istagi qondiriladi, ruhiy-ma'naviy manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchini musiqiy ta'lim maqsadlariga erishishini ta'minlashga yuqori bosqichga ko'taradi.

O'quv jarayonida musiqiy ehtiyojni qondirish bilan birgalikda o'quvchilarda o'zaro musiqiy axborotlarni almashish, qayta ishlash orqali material yahshi o'zlashtiriladi. O'quvchida musiqiy faoliyatlarda o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi. Ta'lim jarayonida – o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, musiqqa san'atiga tanqidiy qarashi va yondashuvi rivojlanadi. O'quvchi uchun musiqqa madaniyati darsi qiziqarli va mazmunli o'qitilayotgan fanga aylanadi, o'qish jarayoniga u badiiy-ijodiy va mustaqil yondashishga harakat qiladi. Muhimi o'quvchilarda musiqiy faoliyatlarda aktiv ishtirok etishda o'zida hoxish-istak uyg'ota olishga ayniqsa, hozirgi tezkor musiqiy-badiiy axborot manbalaridan unumli foydalana olishga ko'nikmalari shakllanadi.

Xullas, interfaol metodlar o'quvchilarni musiqiy bilimlarni egallashda faol bo'lishga, qo'shimcha musiqiy, tarixiy adabiyotlarni o'qish, internet tarmoqlaridan qiziqarli, foydali va kerakli bo'lgan ma'lumotlarni izlab topish, jamoaviy aytim, musiqqa tinglash va tahlil qilishga, musiqiy savodxonlik hamda madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchilarda fanga oid musiqiy kompetensiyalarni shakllantirib rivojlantirishga munosib sharoit yaratadi.

Musiqiy o'quv jarayonini pedagogik boshqaruv asosida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishga erishish, shubhasiz ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirilishiga olib keladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6- apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli Qarori. Toshkent. 2017 y.

2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma). –Toshkent. “Nihol”. 2013 y. - B. 233.
3. Mustafoyev B. Musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish. (Metodik tavsiya). Buxoro. 2020. – B. 10.
4. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T. “Fan va texnologiya”, 2009-yil. – B. 188.
5. Yo'ldoshev J. G'. Interfaol ta'lim sifat kafolati. Toshkent. “Fan”. 2010-yil. – B.53.

## **5.45. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM OLISSLARINING PSIXOLOGIK JIXATLARI.**

**Nurmurodova Sevaraxon Alijon qizi**

Hozirgi vaqtda Oliy ta'lim tizimida talabalarni o'quv jarayonining faol va ijodkor ishtirokchisi sifatida shakllantirish an'anasi paydo bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning ta'siri shundaki, hozirgi jamiyatda tashabbuskor, savodxon, yangi ma'lumotlarni mustaqil oluvchi va foydalanuvchi, o'z kasbiy malakasini muntazam oshiruvchi mutaxassislariga zaruriyat sezilmoqda.

Mustaqil ta'lim olish – oliy ta'lim tizimida talabalarning maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyatidirki, bunda talabalarning o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi tomonidan mustaqil bilim olishga yo'naltiriladi (mustaqil o'rganish uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tavsiya etiladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi) va boshqariladi.

**INDIVIDUAL TA'LIM BERISH VA MUSTAQIL TA'LIM OLISSDA FOYDALANILADIGAN O'QUV MATERIALLARI (MUSTAQIL TA'LIM MATERIALLARI) O'QITUVCHI VA TA'LIM OLUVCHI O'ZARO MULOQATINING ASOSINI TASHKIL ETADI. MUSTAQIL TA'LIM MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUISH VA UNI PEDAGOGIK AMALIYOTGA TATBIQ ETISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMODIR.**

Talabalarning mustaqil ta'lim olish tizimida mustaqil ta'lim mazmuni uning asosini tashkil etadi. Mustaqil ta'lim mazmunini mustaqil ta'lim materiallari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyati tashkil etadi. Bunda o'qituvchi va talaba muloqati asosiy rol o'ynaydi.

Mustaqil ta'lim olishning asosiy vositasi - bu mustaqil ta'lim materiallaridir. Ular uzviy bog'langan tizim bo'lib, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan farq qiladi. Ularda teran va mazmundor uslubiy ko'rsatmalar, ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarish bloki, kasbiy tayyorgarligi jarayonida mustaqil o'qish mezonlari, uning o'z-o'zini mustaqil o'qishga yo'naltirib borishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, o'z-o'zini namoyon etishi va shaxsiy bilish faoliyati jarayonida o'z - o'zini baholay olishi uchun psixologik - pedagogik tavsiyalar mavjud bo'ladi. Mustaqil ta'lim materiallari o'quv-uslubiy qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, kompyuter dasturlari, audio va video-materiallar, mavjud an'anaviy darsliklardan foydalanishga doir tavsiyalar, axborotning boshqa manbaalari ko'rinishida bo'ladi.